

ИССЛЕДОВАНИЯ ВОЕННОЙ НАУКИ

НАУЧНО-
ИНФОРМАЦИОННЫЙ
ЖУРНАЛ

№1(3), 2025

#1(3) / 2025

SCIENTIFIC
INFORMATION
JOURNAL

MILITARY SCIENCE
RESEARCHES

RESEARCH INSTITUTE FOR DEFENSE AND
MILITARY SECURITY PROBLEMS STUDY
OF THE ARMED FORCES OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

НАУЧНО - ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ИНСТИТУТ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМ ОБОРОНЫ
И ВОЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
ООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН



(+998 71) 289-97-79
(+998 71) 289-97-47



100052, Toshkent sh.,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Parkent ko'chasi, 21-uy.



milresearch@mil.uz



<https://www.milresearch.uz>

HARBIY ILM-FAN TADQIQOTLARI

ILMIY-AXBOROT JURNALI



O'R QK MUDOFAA VA HARBIY XAVFSIZLIK
MUAMMOLARINI O'RGANISH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

№1(3)
2025



ИССЛЕДОВАНИЯ
ВОЕННОЙ НАУКИ

MILITARY SCIENCE
RESEARCHES



HARBIY ILM-FAN TADQIQOTLARI 1(3)-son 2025

ILMIY-AXBOROT JURNALI

MUASSIS:

**O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Mudofaa va
harbiy xavfsizlik
muammolarini o'rganish
ilmiy-tadqiqot instituti**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025- yil 13- iyundagi 371- sonli qarori bilan "HARBIY ILM-FAN TADQIQOTLARI" ilmiy-axborot jurnali harbiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasi olish uchun dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025- yil 27- fevralda №640211- raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot institutining davriy nashri sanaladi.

Tahririyat manzili:

100052, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 21-uy, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti.

Tel.: (+998 71) 289-97-22

(+998 71) 289-97-47

Факс: (+998 71) 268-02-70

E-mail: milresearch@mil.uz

E-xat: Harbiy_ilmiy_tadqiqot_institut_i@exat.uz

*Jurnal 2024 yildan
chiqa boshlagan*

© O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti, 2025.

TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir: Djaparov R.K., polkovnik, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti boshlig'i.

Bosh muharrir o'rinbosari: Raxmatbayev R.J., harb.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy-axborot bo'limi boshlig'i.

Hay'at a'zolari:

Kodirov A.R., harbiy fanlar doktori (DSc), dotsent, polkovnik, O'R QK Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va innovatsiya bo'yicha o'rinbosari;

Abdurayimov S.S., harbiy fanlar doktori (DSc), professor, polkovnik, ChOTQMBYu boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha o'rinbosari;

Sultanov D.I., harbiy fanlar doktori (DSc), katta ilmiy xodim, O'R MV AKT va AHI Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi katta ilmiy xodimi – dotsent;

Raximov B.N., t.f.d. (DSc), professor, podpolkovnik, O'R MV AKT va AHI boshlig'i;

Bekmurodov M.B., sots.f.d. (DSc), professor, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi kafedra mudiri;

Abdurahimova D.A., ped.f.d. (DSc), professor, O'R QK Akademiyasi Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi professori;

Umarov M.M., harb.f.f.d. (PhD), dotsent, polkovnik, O'R QK Akademiyasi boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari;

Alimov A.Yu., harb.f.n., dotsent, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi;

Muysinaliyev U.A., harb.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi;

Achilov U.Sh., harb.f.f.d. (PhD), dotsent, polkovnik, O'R QK Akademiyasi Chegara san'ati kafedrasi boshlig'i;

Anarbayev O.I., harb.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Umumiy taktika kafedrasi boshlig'i;

Chorshanbiyev B.B., harb.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Umumiy taktika kafedrasi katta o'qituvchisi;

Gilyajdinov R.T., harb.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Harbiy xavfsizlik kafedrasi boshlig'i;

Shaymanov A.T., harb.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi o'quv jarayoni rejalashtirish bo'linmasi katta ofitseri;

Negriyenko A.Ya., t.f.n., dotsent, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi;

Maxmudov N.A., f-m.f.n., O'R QK Akademiyasi tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti;

Dexkonov O.R., t.f.f.d. (PhD), dotsent, kapitan, O'R MV AKT va AHI katta o'qituvchisi;

Tuxliyev Sh.Yu., t.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi QK Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik kafedrasi sikl boshlig'i;

Xaitov D.E., psix.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti markaz boshlig'i;

Sulaymonov B.B., t.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi QK Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik kafedrasi katta o'qituvchisi;

Tursunov B.P., f-m.f.n., O'R QK Akademiyasi Harbiy ilmiy-amaliy ishlanmalar markazi katta ilmiy xodimi;

Sag'itov R.R., harb.f.n., polkovnik, O'R QK Akademiyasi Umumqo'shin qo'mondonlik fakulteti boshlig'i;

Mas'ul kotib: Lutsenko A.A., harb.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik, O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi;

MUNDARIJA

ДЖАПАРОВ Р.К. О роли беспилотных систем в составе Сухопутных войск	4
ANARBAYEV O.I. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.....	13
НИШОНБОВ М.Х. О некоторых аспектах тактики ведения боевых действий в подземных коммуникациях.....	18
YULDASHEV A.X. Kursantlarda professionallik kompetensiyasini rivojlantirish amaliyotida mutaxassislik fanining o'rni	25
МАМАДАЛИЕВ У.О. Методика проведения специальной физической подготовки курсантов высших военных образовательных учреждений к выполнению боевых задач в условиях горной местности	29
МУРАДОВ Ю.А. Устройство контроля побочных электромагнитных излучений.....	32
ТО'ХТАМЕСHOV F.G', FAZILOVA D.Sh., TURSUNOV B.P. Geomatica dasturi orqali lineamentlarni avtomatik ajratish bosqichlari	49
АЗИМОВ Ж.Т. Получение параметров функции распределения пор по размерам.....	56
TURATOSHEVA S.R., AHMEDOVA M.A. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda psixologik omillarning o'rni.....	62
АБДУЛЛАЕВ Р.И. Морально-психологическое состояние личного состава как компонент и фактор боевого духа.....	67
Кўйсинава Ф.О. Абу Наср Форобийнинг “Фозил одамлар шахри” концепциясидан XXI аср воқелиги сари: глобал хавфсизлик тизимини қайта кўриб чиқиш тўғрисида ..	72
SABUROV F.J. Quruqlikda qo'llanadigan robototexnik komplekslarning harbiy sohada qo'llanilishi va rivojlanish tendensiyalari	77
ABDULLAYEV S.M. Rossiya-Ukraina qurolli mojarosida kontrbatareya kurashi.....	84
NARMATOV B.F., XOLMURODOV D.N. Sun'iy intellekt texnologiyalarini harbiy sohaga joriy qilishning ayrim jihatlari.....	90
MAHMUDOV O'R. Harbiy pedagoglarni tayyorlash, kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini konseptual takomillashtirishda pedagogik yondashuv	95
TOG'AYEV L.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida kursantlarning mustaqil ishlarini tashkil etish pedagogik muammo sifatida.....	102
КАМИЛОВ А.Б. Использование технологий искусственного интеллекта в управлении территориальной обороной государства	107
МАХМУДОВ М.Д., ТУРСУНОВ Б.П., ФАЗИЛОВА Д.Ш. Методы дистанционного мониторинга геодинамических процессов в условиях техногенного воздействия	111
ISOQOV J. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini baholash mexanizmi.....	118
BOZOROV S.S. Elektron boshqaruv va raqamli transformatsiya jarayonida axborot texnologiyalarni harbiy xizmatga chaqiruv tizimida qo'llanilishi.....	122
DAVRONOV F.N. Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish psixologik muammo sifatida.....	133

KIRISH SO‘ZI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy faoliyati doirasida **“Harbiy ilm-fan tadqiqotlari” ilmiy-axborot jurnali harbiy fanlar bo‘yicha ixtisoslashgan** va davriy nashri sifatida tashkil etilgan. Jurnalda O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim va tadqiqot muassasalari mutaxassislari, professor-o‘qituvchilari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilarining harbiy ilm-fan bo‘yicha dolzarb va istiqbolli jihatlarini yorituvchi maqolalari chop etiladi.

Ushbu jurnalda chop etilayotgan materiallarning sifati va ularning mazmunini tizimlash maqsadida, ilmiy maqolalarning mavzusidan kelib chiqib ilmiy ruknlar shakllantirilgan.

Maqolalar chop etish bo‘yicha quyidagi ilmiy ruknlar mavjud:

1. Harbiy fanlar umumiy nazariyasi (harbiy fanlarning metodologiyasi, harbiy nazariy bilimlar tizimi, harbiy ilmiy tadqiqotlarning uslublari, qurollangan kurash qonuniyat va prinsiplari).
2. Mudofaa va xavfsizlik (harbiy xavfsizlik hamda xalqaro, mintaqaviy va milliy xavfsizlik muammolari, davlat mudofaasi masalalari, harbiy doktrina va konsepsiyalar).
3. Harbiy san‘at (strategiya, operativ san‘at va taktika nazariyasi).
4. Harbiy psixologiya va sotsiologiya (harbiy xizmatchilarning psixologik jihatlarini, harbiy jamoalarning sotsiologik muammolari, harbiy psixologiya va sotsiologiya metodologiyasi).
5. Harbiy ta’lim va tarbiya (jangovar va operativ tayyorgarlik, harbiy kadrlarni tayyorlash muammolari, harbiy tarbiya va vatanparvarlik, harbiy pedagogika).
6. Qurolli Kuchlar qurilishi (Qurolli Kuchlarni yaratish, rivojlanish va tayyorlash qonuniyat va prinsiplari; harbiy bo‘linmalarining tashkiliy tuzilmalari).
7. Harbiy boshqaruv (qo‘shinlar boshqaruv tizimlari, aloqa kuchlari va vositalari, qo‘shinlar boshqaruvni tashkillashtirish, jangovar va safarbarlik shayligi, qo‘shinlarning kundalik faoliyatini boshqarish haqida masalalari).
8. Qurolli Kuchlar turlari va qo‘shin turlari (Qurolli Kuchlar turlari (QQ, HXM va HHK), qo‘shin turlari (artilleriya, QQ HXM, MOK va boshq.) hamda maxsus qo‘shinlarni (razvedka, RKB muhofaza, muhandislik qo‘shinlar va boshq.) tayyorlash va qo‘llash masalalari).
9. Jangovar (operativ) va har tomonlama ta’minoti (razvedka, qo‘riqlash, muhandislik ta’minoti, RKB muhofaza, REK, axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurashish, taktik (operativ) niqoblash, axloqiy-ruhiy ta’minot, jangovar harakatlarini tayyorlash va olib borish davomida texnik va front orti ta’minotini tashkillashtirish masalalari).
10. Qurol-yaroq va harbiy texnika (qurol-aslaha va harbiy texnika tizimlarini rivojlanishining qonuniyat va prinsiplari, Qurolli Kuchlar harbiy-texnik siyosati, qurol-aslaha va texnikaning yangi namunalarini yaratish va takomillashtirish).
11. Harbiy iqtisod va Qurolli Kuchlar front orti (harbiy-iqtisod tizimining mazmuni, front orti bo‘linmalarining tashkiliy tuzilishi va vazifalari, moddiy vositalarni tashib keltirish, harbiy xizmatchilarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliya va boshqa ta’minotlari, qo‘shinlarning moddiy zaxirasini to‘ldirish, taqsimlash va iste’mol qilish muammolari, harbiy tibbiyot masalalari).
12. Chegara xavfsizligini ta’minlash (chegara faoliyati nazariyasi, chegara bo‘linmalarining harakatlar taktikasi va chegara san’ati).
13. Harbiy sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (Qurolli Kuchlar faoliyatini va harbiy tizimlarini axborotlashtirish, sunniy intellekt, modellash va simulyatsiya masalalari).
14. Harbiy tarix (urushlar tarixi, harbiy g‘oya va harbiy san‘at tarixi, Qurolli Kuchlarning qurilish tarixi, qurol-aslaha va boshqa harbiy sohalar tarixi).

**АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ “ФОЗИЛ ОДАМЛАР ШАҲРИ”
КОНЦЕПЦИЯСИДАН XXI АСР ВОҚЕЛИГИ САРИ: ГЛОБАЛ
ХАВФСИЗЛИК ТИЗИМИНИ ҚАЙТА КЎРИБ ЧИҚИШ ТЎҒРИСИДА****ҚЎЙСИНОВА Ф.О.,**

сиёсий фанлар доктори (DSc), Ўзбекистон халқ аро илмшунослик Академичси Халқ аро
муносабатлар кафедраси профессори

Maqolada zamonaviy dunyoning ko'p qutbli tizimga aylanayotganligi va bunda ayrim mamlakatlar orasidagi raqobat natijasida yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat, jumladan turli qurolli mojarolar sharoitida Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyining aql-idrok, adolat va ezgulikka intilishga asoslangan "Fozil odamlar shahri" haqidagi g'oyalari to'g'risida ilmiy ma'lumotlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: geosiyosiy raqobat, global xavfsizlik tizimi, Sharqning buyuk mutafakkiri, ko'p qutbli tizim, urushlar va harbiy mojarolar.

В статье рассматриваются сведения о том, что современный мир превращается в многополярную систему и сложная ситуация, возникающая в результате конкуренции между отдельными странами, приводит к различным вооруженным конфликтам. В этих сложных условиях для мирного решения конфликтных ситуаций приводятся идеи великого восточного мыслителя Абу Наср аль-Фараби о "Городе добродетельных людей," основанном на стремлении к разуму, справедливости и добру.

Ключевые слова: геополитическая конкуренция, система глобальной безопасности, великий восточный мыслитель, многополярная система, войны и военные конфликты.

The article examines scientific data on the fact that the modern world is turning into a multipolar system, and the complex situation arising as a result of competition between individual countries leads to various armed conflicts. And in these complex circumstances, for the peaceful resolution of conflict situations, the ideas of the great Eastern thinker Abu Nasr al-Farabi about the "City of Virtuous People," based on the pursuit of reason, justice, and goodness, are presented.

Keywords: geopolitical competition, global security system, great Eastern thinker, multipolar system, wars and military conflicts.

Sharqning buyuk mutafakkiri **Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri"** nomli fundamental asarida odamlar aql-idrok va umumiy farovonlikka intilish bilan uyg'unlikda yashaydigan ideal jamiyat manzarasini chizgan [1]. U shaharni (davlatni) umumiy kamolotga erishishga yo'naltirilgan, urushlar va adovatlar uning tabiatiga yot bo'lgan organizm sifatida ko'rdi. Bu tushuncha aql-idrok, adolat va umumiy farovonlikka intilish tamoyillariga asoslangan bo'lib, nafaqat falsafiy qarash, balki xalq va davlatlarning milliy manfaatlari insoniyatning umumiy manfaatlari bilan ziddiyatga kirishishi mumkin emasligini ham ko'rsatadi.

Bugun, XXI asrning uchinchi o'n yilligi yarmida, bu ideal biz uchun har qachongidan ham uzoqda ko'rinmoqda. Dunyo yangi va eskirgan mojarolar girdobida qoldi, geosiyosiy raqobat keskinlashmoqda, global barqarorlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan yetakchi davlatlar ko'pincha o'zlarining tor milliy manfaatlarini himoya qilish uchun xalqaro huquq mexanizmlaridan foydalanmoqda, bu esa ularni keskinlik manbaiga aylantirmoqda va kollektiv xavfsizlik asoslariga putur yetkazmoqda. Bunday tashvishli vaziyat fonida o'tkir savol tug'iladi: Forobiy g'oyalariga

yaqinlashish va insoniyat kuch-g'ayratini buzg'unchilikka emas, bunyodkorlikka yo'naltirish uchun global xavfsizlik tizimini qanday qayta ko'rib chiqish kerak?

Zamonaviy dunyo bashorat qilinadigan ikki qutbli yoki bir qutbli tizimdan murakkabroq va kamroq boshqariladigan ko'p qutbli tizimga aylanmoqda. Bir nechta kuch markazlari – AQSh, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Hindiston – ta'sir, resurslar va strategik ustunliklar uchun faol raqobatlashmoqda. Bu raqobat nafaqat yangi ittifoqlar va kuchlar muvozanatini shakllantirmoqda, balki ko'pincha ochiq yoki gibriz nizolarga aylanib, kiberhujumlar, axborot urushlari, savdo to'siqlari va proksi-mojarolarda namoyon bo'lmoqda, bu esa umumiy muammolarni hal qilish uchun hayotiy zarur bo'lgan global ishonch va hamkorlikka putur yetkazmoqda. Bu manfaatlar to'qnashuviga zamin yaratmoqda, xoh u geosiyosiy hukmronlik uchun kurash bo'lsin, xoh iqtisodiy raqobat, hududiy nizolar yoki mafkuraviy kelishmovchiliklar bo'lsin.

Bu to'qnashuvlarning bahosi o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan insonlar hayoti va ulkan iqtisodiy xarajatlar bilan o'lchanadi. XX asr nafaqat buyuk ilmiy kashfiyotlar davri, balki misli ko'rilmagan qon to'kishlar davri sifatida tarixga kirdi. Ikkita jahon urushi dahshatli bolg'a kabi tinchlikka bo'lgan umidlarni parchalab tashladi, faqat Ikkinchi jahon urushi 70-85 million kishining hayotini yo'qlik qa'riga olib ketdi – bu esa hozirgi Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya aholisining yer yuzidan yo'q bo'lib ketishi bilan barobardir [2]. To'g'ridan-to'g'ri qurbonlardan tashqari, bu mojarolar butun avlodlarga chuqur jarohatlar qoldirdi, ijtimoiy aloqalarni buzdi, ommaviy migratsiya va gumanitar falokatlarga olib keldi, ularning oqibatlari o'nlab yillar davomida sezilmoqda.

Hozirda esa bu fojia davom etmoqda: Ukraina, G'azo sektori, Yaman, Suriya, Sudandagi mojarolar, endi esa Isroil-Eron mojarosi har kuni odamlarning hayotiga zomin bo'lmoqda, uylarni vayron qilmoqda, gullab-yashnayotgan yerlarni tuproq va kulga aylantirmoqda. Ushbu talafot zonalarida millionlab odamlar asosiy xizmatlar, ta'lim va tibbiyotdan mahrum bo'lmoqda, ochlik va epidemiyalarga duch kelmoqda, bolalarning butun avlodlari zo'ravonlik va noaniqlik sharoitida o'smoqda. Bu raqamlarning har biri ortida barbod bo'lgan oilalar, amalga oshmagan orzular, yo'qotilgan bolalik bor.

Hisob-kitoblarga ko'ra, XXI asrda urushlar va harbiy mojarolar qurbonlarining umumiy soni millionlar bilan hisoblanmoqda. Misol uchun, 2024 yilda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab mojarolarda 48 mingdan ortiq tinch aholi halok bo'lgan, Ukraina va G'azo sektoridagi urush kabi mojarolarda umumiy yo'qotishlar (harbiylar va fuqarolar) yuz minglab bo'lib, kun sayin o'sib bormoqda va qayg'uli statistikani to'ldirmoqda [3]. Ushbu statistikada millionlab majburiy ko'chmanchilar, qochqinlar, ruhiy jarohatlardan aziyat chekayotgan odamlar, shuningdek, mojaro zonalarida ochlik, kasallik va infratuzilma yo'qligidan vafot etayotgan bilvosita qurbonlar hisobga olinmagan.

Urush va unga tayyorgarlik ko'rish uchun sarflangan bu trillionlab dollarlar qo'ldan boy berilgan ulkan imkoniyatlarni namoyish etmoqda. 2024 yilda jahon harbiy xarajatlari rekord darajadagi 2,718 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu tarixdagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, 2023 yilga nisbatan 9,4 foizga oshdi [4]. Tasavvur qiling, bu mablaqqa qancha maktab qurish, qancha shifoxona jihozlash, kasalliklarni davolashga

yoki iqlim o'zgarishi muammosini hal qilishga qodir qancha tadqiqotlarni moliyalashtirish mumkin edi! Bu pullar gullab-yashnayotgan yerlarni vayronaga aylantirish o'rniga milliardlab odamlarni toza suv bilan ta'minlashi, millionlab ish o'rinlarini yaratishi, cho'llarni gullab-yashnayotgan vohalarga aylantirishi mumkin edi.

Zamonaviy global xavfsizlik arxitekturasining markaziy elementi – BMT ko'pincha tahdidlarga samarali javob bera olmayapti, bu esa uzoq davom etadigan mojarolar, gumanitar inqirozlar va umuman xalqaro institutlarga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda. Bu falajlikning asosiy sababi uning asosiy organi – Xavfsizlik kengashining strukturasi va ishlash prinsipidadir. Beshta doimiy a'zo – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya veto huquqiga ega, bu ularga har qanday rezolutsiyani bloklash imkonini beradi.

Dastlab kollektiv xavfsizlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlash uchun yetakchi davlatlarning konsensusini ta'minlashga mo'ljallangan bu mexanizm, geosiyosiy raqobat kuchaygan sharoitda, tor milliy manfaatlarni himoya qilish va qon to'kilishini to'xtatishi mumkin bo'lgan rezolutsiyalarni to'sib qo'yishning tez-tez qo'llaniladigan vositasiga aylandi, bu esa BMTning obro'si va samaradorligiga bevosita putur yetkazmoqda. Xavfsizlik kengashining 1945 yil voqeligini aks ettiruvchi strukturasi Hindiston, Germaniya, Yaponiya, Braziliya yoki Afrika mamlakatlari vakillari kabi yangi global o'yinchilarning paydo bo'lishini hisobga olmagan, bu esa uning qonuniyligi va jahon hamjamiyati oldidagi obro'siga putur yetkazmoqda.

BMT yana tinchlikni saqlashning samarali vositasiga aylanishi uchun dadil va uzoqni ko'ra oladigan islohotlar zarur. Quyida BMT Xavfsizlik kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan strategik takliflar keltirilgan.

Birinchidan, Hindiston, Braziliya, Germaniya, Yaponiya, Nigeriya (yoki JAR) kabi asosiy rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va mintaqaviy yetakchilar vakillarini, shuningdek, yirik mintaqaviy birlashmalarning doimiy vakillarini jalb qilish orqali doimiy a'zolar sonini ko'paytirish kerak. Bu uning vakilligi, qonuniyligi va butun insoniyat manfaatlarini aks ettiruvchi adolatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, veto huquqini cheklash kerak, toki u falajlik quroli bo'lib xizmat qilmasin. Undan genotsid, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar holatlarida foydalanishni taqiqlash, shuningdek, "ikki tomonlama veto" talabini joriy etishni taklif qilish mumkin (bunda blokirovka faqat ikki yoki undan ortiq doimiy a'zolar bir vaqtning o'zida veto qo'ygandagina mumkin bo'ladi). Muqobil variant "malakali ko'pchilik" tizimiga o'tish bo'lishi mumkin, bu yerda qarorlar mutlaq bloklash huquqi bilan emas, balki qaror qabul qilish uchun keng qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan muvozanatli ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Uchinchidan, BMT Xavfsizlik kengashining majlislarini, ayniqsa, nozik masalalar bo'yicha o'tkaziladigan yig'ilishlarni yanada ochiq, qarorlar qabul qilish jarayonini esa shaffof qilish zarur. Doimiy a'zolarining veto huquqidan foydalanish sabablari to'g'risida vaqti-vaqti bilan hisobot berish mexanizmini o'rnatish, bu ularning jahon hamjamiyati oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

To'rtinchidan, veto tufayli BMT Xavfsizlik kengashining falajligi davom etayotgan taqdirda, "Global Janub" mamlakatlari va boshqa aksariyat davlatlar BMT Xavfsizlik kengashining qarorlari yoki harakatsizligiga jamoaviy norozilik ko'rsatishi, ularning qonuniyligini boshqa xalqaro maydonlarda ochiqchasiga e'tiroz bildirishi maqsadga muvofiqdir. Bu davlatlarning keng koalitsiyalarini tuzish orqali amalga oshirilishi mumkin, ular o'z pozitsiyalarini birlashgan holda ifoda etadilar, masalan, BMT Bosh Assambleyasida ovoz berish yoki qo'shma bayonotlar orqali. Ko'pchilikning yakdil irodasini bunday namoyish etish qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaydigan kuchli siyosiy bosim bo'ladi.

Beshinchidan, qarorlar veto huquqisiz qabul qilinishi mumkin bo'lgan muqobil xalqaro va mintaqaviy platformalarni (masalan, BMT Bosh assambleyasi, mintaqaviy ittifoqlar, shuningdek, zudlik bilan universal javob qaytarish talab etiladigan xavf-xatarlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan global sammitlar va forumlar) faol rivojlantirish va ulardan foydalanish zarur. Bunday yondashuv to'g'ridan-to'g'ri kuch bilan kurashishga emas, balki mavjud tizimning qonuniyligini buzish va obro'sini tushirishga qaratilgan bo'lib, BMT Xavfsizlik kengashi doimiy a'zolarini global xavfsizlik arxitekturasida markaziy o'rinni saqlab qolish uchun yon berishga va haqiqiy islohotlarga majbur qiladi. Bu o'ziga xos "yumshoq kuch" bo'lib, ko'pchilikning birlashgan irodasi bilan juda samarali bosim vositasiga aylanishi mumkin.

Oltinchidan, BMT Bosh kotibi va uning maxsus vakillarining barvaqt ogohlantirish va preventiv diplomatiya borasidagi salohiyatini kuchaytirish, ehtimoliy mojarolarni aniqlash va ular avj olguniga qadar hal etishga salmoqli resurslarni yo'naltirish lozim. Bunda tahliliy imkoniyatlarni kuchaytirish, axborotchilar va vositachilar tarmog'ini kengaytirish, ularga tezkor aralashuv uchun zarur vakolatlar berish nazarda tutiladi.

Yettinchidan, BMTning tinchlikparvarlik operatsiyalarini yanada moslashuvchan vakolatlar, yaxshiroq tayyorgarlik va zamonaviy mojarolarning gibril xususiyatini hisobga olgan holda zamonaviy qurol-yaroq, harbiy va maxsus texnikalar bilan jihozlash orqali yangilash zarur. Bu, shuningdek, kuch ishlatishning aniqroq qoidalari va qat'iy javobgarlikni ham nazarda tutadi.

Sakkizinchidan, Xalqaro sud va Xalqaro jinoyat sudining rolini kuchaytirish, ularning yurisdiksiyasini tan olish va qarorlarining barcha davlatlar tomonidan so'zsiz bajarilishini ta'minlash lozim. Bu qonun ustuvorligi va xalqaro qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik tamoyillarini o'rnatish uchun juda muhimdir.

To'qqizinchidan, Global taraqqiyot jamg'armasini tuzish maqsadga muvofiqdir. BMTga a'zo mamlakatlar, BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolaridan boshlab, o'z harbiy xarajatlarini kelishilgan foizga (masalan, har yili yalpi ichki mahsulotning 0,5-1 foizi) bosqichma-bosqich qisqartirish va bo'shagan mablag'larni maqsadli Global taraqqiyot jamg'armasiga o'tkazish taklif etiladi. Ushbu jamg'arma BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish (kambag'allik, ochlik, kasalliklarga qarshi kurashish, ta'lim va suvdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash) va ilmiy tadqiqotlarni, ayniqsa insoniyatning omon qolishi uchun muhim bo'lgan sohalarni (masalan, yashil energiya, tibbiyot, iqlimshunoslik)

moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Bu nafaqat ulkan resurslarni bo'shatadi, balki tinch taraqqiyotning harbiy qarama-qarshilikdan ustuvorligini yaqqol tasdiqlaydi [5].

O'ninchidan, ilm-fan va ta'lim sohasida global hamkorlikni rivojlantirish, BMT boshchiligida xalqaro tadqiqot markazlari, rivojlanayotgan mamlakatlar talabalari uchun stipendiya dasturlari, global muammolarni birgalikda hal qilish uchun olimlar va muhandislar almashinuvi dasturlarini yaratish zarur. Bilim va ta'lim – umumiy muammolar milliy raqobat nuqtai nazaridan emas, balki jamoaviy tarzda hal qilinadigan tinch va farovon kelajak qurishning poydevoridir.

Shunday qilib, **dunyo tanlov chorrahasida turibdi**. Yo biz mojarolarni kuchaytirish va qurollanish poygasiga ulkan resurslarni sarflash yo'lidan borishda davom etamiz, yoki tub o'zgarishlar zarurligini anglab yetamiz. Forobiyning aql-idrok, adolat va ezgulikka intilishga asoslangan "Fozil odamlar shahri" haqidagi g'oyalari bu borada mayoq vazifasini o'tashi mumkin. Biz insoniyatning zimmasida nafaqat bu bema'nilikni kuzatish, balki o'zgarishlarni talab qilishdek axloqiy mas'uliyat ham bor. Umumiy resurslarimiz qurolli to'qnashuvlar girdobiga singib ketayotgan bir paytda biz passiv kuzatuvchi bo'lib tura olmaymiz. Harakatsizlik ham tanlov, lekin halokatga olib boruvchi tanlovdir.

BMT, ayniqsa, uning Xavfsizlik kengashi islohoti insoniyatning omon qolishi va gullab-yashnashi uchun nafaqat istalgan, balki juda zarur chora hisoblanadi. Tor milliy manfaatlardan voz kechib, kollektiv xavfsizlikni keng tasavvur qilish, moliyaviy oqimlarni vayronkorlikdan bunyodkorlikka yo'naltirish – bu fantastika emas, balki kelajak avlodlar uchun imperativdir. Agar BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari o'z ziddiyatlaridan yuqori ko'tarila olmasalar va bu o'zgarishlarga rozi bo'lmasalar, nazorat qilib bo'lmaydigan anarxiyaga va potensial halokatli qarama-qarshilikka tushib qolish xavfi faqat ortib boradi.

Islohotlar vaqti keldi. Ushbu fursatdan foydalanib, "Fozil odamlar shahri"ga munosib dunyoni barpo etishga insoniyat tayyormi? Bu savolning javobi nafaqat bizning avlodimiz, balki butun kelajak taqdirini belgilab beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Fozil_odamlar_shahri - Murojaat sanasi: 12.05.2025.
2. Потери во Второй мировой войне - URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/> - Murojaat sanasi: 08.03.2025.
3. URL: <https://www.dw.com/ru/oon-cislo-mirnyh-zitelej> - Murojaat sanasi: 23.04.2025.
4. URL: <https://newtimes.ru/articles/detail/250664/> - Murojaat sanasi: 17.05.2025.
5. Цели устойчивого развития - URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/> - Murojaat sanasi: 11.04.2025.